e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 11

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/vb8y4j46

O‘RTA OSIYO XALQLARI IJTIMOIY HAYOTINING MUG‘ TOG‘I ARXIVI HUJJATLARIDA AKS ETISHI

Sattorov Eldor Bobir o‘g‘li
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, dotsent.
e-mail: sattoroveldor1992@gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/0009-0000-1572-6435

Annotatsiya.
Maqolada Mug‘ tog‘i arxivi hujjatlari asosida ilk o‘rta asr Sug‘d jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari tahlil qilinadi. Nikoh shartnomasi, yer savdosi, ijara, mehnat majburiyatlari va xo‘jalik qaydnomalaridagi ma’lumotlar qiyoslanadi. Arxiv materiallari huquqiy tartib, mulkiy munosabatlar va jamoa boshqaruvining ayrim jihatlarini yoritishga xizmat qilishi ko‘rsatiladi.
Kalit so‘zlar: Mug‘ tog‘i arxivi; Sug‘d; nikoh shartnomasi; Devashtich; ijara; huquq; mulk; xo‘jalik hujjatlari.

ОТРАЖЕНИЕ ОБЩЕСТВЕННОЙ ЖИЗНИ НАРОДОВ СРЕДНЕЙ АЗИИ В ДОКУМЕНТАХ АРХИВА ГОРЫ МУГ

Саторов Элдор Бобир угли
Шахрисабзский государственный педагогический институт, доцент.

Аннотация.
В статье на основе документов архива горы Муг анализируются социально-экономические отношения в согдийском обществе эпохи раннего Средневековья. Сопоставляются сведения, содержащиеся в брачном договоре, документах о купле-продаже земли, аренде, трудовых повинностях и хозяйственных записях. Показано, что архивные материалы позволяют осветить отдельные аспекты правового порядка, имущественных отношений и общинного управления.
Ключевые слова: архив горы Муг; Согд; брачный договор; Деваштич; аренда; право; собственность; хозяйственные документы.

SOCIAL LIFE IN CENTRAL ASIA AS REFLECTED IN THE MOUNT MUGH ARCHIVE

Sattorov Eldor Bobir o‘g‘li
Shahrisabz State Pedagogical Institute, Associate Professor.

Abstract.
The article analyzes socio-economic relations in early medieval Sogdian society based on documents from the Mount Mugh Archive. It compares information contained in a marriage contract, land sale records, lease agreements, labor obligations, and economic records. The study demonstrates that archival materials help illuminate certain aspects of the legal order, property relations, and community governance.
Keywords: Mount Mugh Archive; Sogdiana; marriage contract; Devashtich; lease; law; property; economic documents.

Kirish. Ilk o‘rta asrlarda Sug‘dda kechgan ijtimoiy jarayonlarni yoritishda sug‘d tilidagi matnlarning tadqiqi muhim sanaladi. Buning asosiy sabablaridan biri sug‘d tilidagi matnlar aynan ijtimoiy jarayonlar kechayotgan vaqtlarda yozilganligidadir. Ijtimoiy-maishiy hayotni aks ettirgan sug‘diy matnlarning ko‘p hollarda jarayon ishtirokchilari tomonidan yozilganligi ularning ahamiyatini belgilaydi. Masalan, Mug‘ tog‘i arxivi va «Ko‘hna xatlar» aynan shunday xususiyatga ega. Ilk o‘rta asrlarda Arab xalifaligi bosqiniga qadar Sug‘ddagi ijtimoiy hayot masalalari yuzasidan yozma manbalar anchayin kam bo‘lib, bu haqdagi ma’lumotlar asosan sug‘diy yozma yodgorliklarda, jumladan, Mug‘ tog‘i arxivi hujjatlarida yetib kelganligi bois muammoni yoritishda ushbu manbalar asos qilib olindi.

Ijtimoiy hayot masalalari aks etgan 80 dan ortiq turli mazmundagi hujjatlarni o‘zida jamlagan manba Mug‘ tog‘i arxivi hisoblanadi. Ilk o‘rta asrlarda Sug‘dda kechgan ijtimoiy munosabatlarni ochib berishda Nov. 3 va Nov. 4 (Nikoh shartnomasi) muhim ahamiyat kasb etadi. Shartnoma Sug‘d hukmdori Tarxun hukmronligining 10-yilida tuzilgan [9; 38-b.]. Nikoh shartnomasining mazmuniga qarab, ilk o‘rta asrlarda Sug‘ddagi nikoh munosabatlari asosan o‘zaro teng qatlam vakillari o‘rtasida amalga oshirilganligini ko‘ramiz. Fikrimizni shartnomada keltirilgan Uttegin va Dug‘dg‘unchaning ham ozod qatlam vakillari sifatida zodagonlardan ekanligi bilan asoslashimiz mumkin. Shartnoma turkiy etnos vakili Uttegin va sug‘diy etnos vakili bo‘lgan Dug‘dg‘uncha o‘rtasida tuzilgan nikoh shartnomasi hisoblanadi. Bu shartnoma saroy devonxonasining «Vaxg‘ukan» degan joyida tuzilgan [5; 312-b.]. Shartnomani tuzish jarayonida iqtisodiy asoslarga tayanilgan. Shartnomada quyidagi ijtimoiy-maishiy masalalar aks etgan. Masalan, er-xotinning vazifalari hamda oiladagi munosabatlar ko‘rsatilgan. Uttegin tomonidan Dug‘dg‘unchani hurmat qilish, oziq-ovqat, kiyim-kechak, bezak-taqinchoqlar bilan ta’minlash nazarda tutilgan satrlarda shu holat aks etadi. Dug‘dg‘uncha ham Utteginni sevikli er sifatida hurmat qilib, uning buyrug‘ini o‘zi uchun qonun deb hisoblashi aytib o‘tilgan. Mazkur ma’lumotlar orqali sug‘dlik erkaklarning ayollari oldidagi vazifa va burchlari hamda ayollarning oiladagi majburiyatlariga aniqlik kiritilgan. Bundan tashqari, oilada kelajakda ro‘y berishi mumkin bo‘lgan ehtimoliy holatlar ham qayd etilgan. Masalan, erkakning xotin

ustiga yana xotin olishi yoki cho‘ri (kanizak) olishi uning xotinining ruxsati bilan amalga oshishi shartnomada nazarda tutilgan. Agar bu jarayon xotinga ma’qul kelmasa, belgilangan tovon pulini to‘lab, uni qo‘yib yuborishi kerakligini ko‘rishimiz mumkin. Shartnomada tovon puli 30 dirham miqdoridagi yaxshi saqlangan toza kumush sifatida belgilangan [13; 49-b.].

Ilk o‘rta asrlarda Sug‘dda erkak va ayolning gender tengligini nikoh shartnomasining ehtimoliy ajrim holatlariga oid Nov. 3 (R) 20–26-satrlar va Nov. 3 (V) 1–7-satrlardagi lavhalar ifodalaydi. Shartnomaga ko‘ra, Uttegin Chatani xotin sifatida saqlab qolmaslikka qaror qilsa, uni qo‘yib yuborishi, shu bilan birga, oziq-ovqat berishi kerak bo‘lgan. Shuningdek, turmush qurganlaridan keyin birgalikda olgan narsalari va tovon puli bilan uni jo‘natib yuborishi lozim bo‘lgan. Jo‘natib yuborgandan keyin Chataga tovondor bo‘lmagan va unga tovon to‘lamagan. Yuqoridagi talablar bajarilgandan keyin o‘ziga yoqqan ayolga uylana olgan [1]. Ta’kidlash kerakki, Chata Utteginga xotin bo‘lmaslik qaroriga kelsa, unda xotinlikdan chiqib ketishi mumkin bo‘lgan. Mazkur holatda Utteginga kiyishga yaroqli kiyimlar qoldirishi, to‘yda Uttegindan olgan bezak-taqinchoqlari va boshqa narsalarni tashlab ketishi kerak bo‘lgan. Chata faqatgina o‘ziga tegishli va birgalikdagi hayoti davomida topilgan mulkini olib keta olgan. Sanab o‘tilgan shartlar bajarilgandan so‘ng Dug‘dg‘uncha o‘zi xohlagan erkakka turmushga chiqishi mumkin bo‘lgan. Nikoh shartnomasida qator masalalarning batafsil bayon etilishi Sug‘d ijtimoiy hayotida ayollarning birmuncha huquq va erkinliklarga ega bo‘lganligini ko‘rsatsa-da, bu erkinlik amaliyotga tatbiq qilinganmi yoki faqat hujjatda qolib ketganmi, buni ochib berish qiyin. Keyingi zamonlarda xotinning oiladagi tobe holati kuchayib borganligiga asoslanib, shartnomaning ko‘p bandlari faqatgina qog‘ozda qolib ketgan, degan fikrga kelishimiz mumkin.

Uttegin Mitra guvohligida Chatani sotmaslik, qarz evaziga qullikka ham bermaslik, biror kimsaning homiyligidagi mulkka aylanishiga ham yo‘l qo‘ymaslik majburiyatini olgan. Agar Chata men bilan qolishni ixtiyor qilmasa yoki men o‘zim uni qo‘yib yuborsam, uni oilasi va urug‘iga sog‘lom, ziyon-zahmatsiz topshirishini aytgan. Agar uni ziyon-zahmatsiz yetkazib bermasam, u holda 100 dirham kumush miqdoridagi tovonning muomalada amal qilishi tasdiqlangan. Yaxshi saqlangan (toza, sifatli) pul qarz bo‘lishini va uni to‘lashni bildirgan. Shartnomaning aynan shu joyida ijtimoiy hayotdagi sudxo‘rlik belgilari namoyon bo‘lgan. Uttegin pulni to‘lamasa, u holda har 10 dirhamga 2 dirham foiz to‘lash evaziga qarz sifatida saqlashini bayon qilgan. Uttegin tomonidan shartnomada laqabi Nivudak bo‘lgan Nipak Vurz o‘g‘li 100 dirham yuzasidan javobgar sifatida tayinlangan. Bundan tashqari, shartnoma barcha xalqqa — shu uyda muqim yashovchilarga va xonadon mehmonlariga birdek taalluqli deb belgilangan. Sug‘ddagi ijtimoiy hayotda oila qurgandan so‘ng er va xotin bir butun hisoblangan, shu sababli ulardan qaysi biri jinoyat sodir etishidan qat’i nazar, qonun oldida ikkalasi ham javob berishi kerak bo‘lgan. Ajrimdan keyin tomonlar jinoyat sodir etgudek bo‘lsa, bir-birlari uchun javob berishdan ozod bo‘lishgan [12; 25-b.]. Fikrimizni nikoh shartnomasida jinoyat uchun jinoyatni sodir etgan shaxsning o‘zi javob berishi belgilab qo‘yilganligi asoslashga xizmat qiladi. Nikoh munosabatlariga oid sug‘diy hujjatlar mazmunidan anglashilishicha, ilk o‘rta asrlarda Sug‘dda ko‘p xotinlilik (poligamiya) amalda mavjud bo‘lgan. Tadqiqotchilar fikricha, Sug‘dda nikohning uchta shakli bo‘lib, ular huquqiy hamda mulkiy jihatdan bir-biridan farq qilgan. Ya’ni: a) to‘la huquqli nikoh, bunda ayolga ko‘proq huquq berilgan; b) vasiylik ostidagi nikoh, yuqoridagi nikoh shartnomasiga ko‘ra, ayolni erga bergan Cher nikohdan keyin ham uning vasiysi bo‘lib qolavergan; v) yordamchi (yoki ikkilamchi) nikoh, bunday nikoh faqat to‘la huquqli nikohga kirishgan xotin ruxsat bersagina tuzilishi mumkin bo‘lgan [18; 27-b.]. Shartnoma tahlilidan unda iqtisodiy va diniy xususiyatlar mavjudligi, ilk o‘rta asrlarda Sug‘d jamiyatida oila barqarorligini saqlashga alohida e’tibor qaratilganligi, uning butunligini saqlash uchun iqtisodiy jarimalar qo‘llash holatlari ishlab chiqilganligi ma’lum bo‘ladi. Hozirgi kundagi kabi ilk o‘rta asrlarda ham Sug‘d jamiyatining asosiy negizi oila bo‘lgan, degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Sug‘ddagi ijtimoiy-madaniy masalalarni tadqiq etishda A-9 raqamli hujjat muhim hisoblanadi. Hujjat Panch hukmdori Divashtichga yuborilgan harbiy va siyosiy hisobot bo‘lib, unda Sharqiy Turkistondagi Kucha aholisining brahmanlik e’tiqodiga o‘tganligi haqida xabar berilgan. Hujjat matni quyidagicha:

(1) rty ’sty ZK z-’w ZK kwc’nth ZY ’’ym rty ZK mywn n’ßw pr
(2) pr-ym’ny pyr nyz-’nt rty cw ’’z-tk-’r ZY cw yw’k-ry ZYcw
(3) k’ry-k’r rty RYPWw ZY IIII I-LPW p’ys’y rty ’ζ-γηί wytδ’r [15]
(1) Va shunday xabar bor: «Xo‘janddagi (voqealar) tugadi va barcha xalq
(2) amirning diniga (yoki “himoyasiga”) o‘tdi — zodagonlar (“ozodlar”) ham, savdogarlar va
(3) xizmatkorlar ham (jami) 14 ming (bo‘lib) chekindilar».

Ko‘rib turganimizdek, maktubda to‘rtta alohida ijtimoiy qatlam to‘g‘risida gap boradi. «Ozod» atamasi («ozodkor»), shubhasiz, harbiy zamindorlar qatlami, yerga egalik qiluvchi zodagonlarni anglatgan. Shu sababli maktub muallifi zodagonlar va savdogarlar atamalarini bir joyda ishlatgan. Fikrimizcha, ushbu holat yuqorida ta’kidlangan ikki qatlamning jamiyat hayotida kechadigan ijtimoiy masalalarda asosiy ahamiyat kasb etuvchi kuch ekanligini ko‘rsatadi. «Baxshi» atamasi, avvalo, budda dini peshvolariga tegishli bo‘lgan, maktubda esa amaldorlarni ham nazarda tutgan bo‘lishi mumkin. Har qanday holatda ham, keyinchalik bu so‘z ko‘pincha, birinchi navbatda, buddist yoki mansabdorlarga murojaat qilish uchun ishlatilgan [7; 454-b.]. Aholining ushbu qatlamlari amaldorlar sifatida qaralsa, unda diniy o‘zgarishni muhim siyosiy holat bilan bog‘lashimiz mumkin. Chunki boshqa davrlarda bo‘lgani kabi, ilk o‘rta asrlarda ham asosan siyosiy o‘zgarishlar tufayli amaldorlar o‘z dinlarini o‘zgartirishgan [6; 48-b.].

V. A. Livshits «ishchilar» atamasini fors-tojik tilidagi kargar so‘zi bilan ancha o‘rinli solishtirib, shu tushunchani «ishchi» sifatida talqin qilgan. Ishchilarning ham mazkur jarayonda ishtirok etishi ularning jamiyatning ijtimoiy holatiga o‘z ta’sirini o‘tkazuvchi qatlam ekanligini ko‘rsatgan. Maktubda korikor atamasining alohida qo‘llanilib, bayon qilinishi misolida ijtimoiy masalalarda hunarmandlar ham asosiy harakatlantiruvchi toifalardan biri ekanligi ko‘rsatiladi. Chunki manbalarda aynan korikorlar atamasi ko‘p hollarda shahar hunarmandlariga nisbatan qo‘llanilgan. Shuningdek, ziroatkor

qishloq aholisiga nisbatan arkkarak [3; 360-b.] va umuman aholi yoki jamoaga nisbatan nafa, mrtxmkt atamalari ishlatilgan [11; 101-b.]. Bu orqali ishchilar sinfining ham bir necha toifasi bo‘lganligi anglashiladi. Mug‘ tog‘i arxividagi V-4 raqamli hujjat ijtimoiy munosabatlarni o‘zida aks ettirgan. Hujjatda ijara sifatida uchta tegirmon bilan birga, ularga qo‘shimcha ravishda ariqlar sanab o‘tilgan. Tegirmonlarning haqi sifatida ijaraga oluvchi Moxyan yiliga 460 kafch (3680 kg) un to‘lashi lozim bo‘lgan. Ijara haqining oyma-oy to‘lab turilishi shartlar qatorida ko‘rsatilgan. Ijara shartlari bajarilmay qolganda ijtimoiy nazorat va huquqiy shaklni ko‘rsatuvchi maxsus jumla V-4 hujjatida aks etgan: «Agar Moxyon bu shartlarni bajarmasa, unni to‘liq bermasa, u holda qalloblik, qonunbuzarlik (uchun gunoh) Moxyon ustiga (bo‘lsin). Devashtich esa (podsho) o‘zining amaldoriga buyursin va qonunga binoan o‘sha unni podsho uchun to‘kis undirib bersin» [16; 73-b.]. Keltirilgan jumlaga asoslanib, ilk o‘rta asrlarda Sug‘d jamiyatida shartnoma majburiyatlarining bajarilishi hukmdor amaldorlari orqali nazorat qilinganini ko‘rish mumkin.

Mug‘ tog‘i arxiv hujjatlarida V-8 raqamli hujjat mavjud. Ushbu hujjatda qabriston uchun yer-joy oldi-sotdisi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Hujjat matnida o‘rtaga qo‘yilgan mulk, uning xususiyati, joylashgan o‘rni, savdoning maqsadi, mulkni turli da’volardan himoya qilish masalasi, mulkning narxi kabi xo‘jalikka oid masalalar aks etgan. Mazkur hujjatda yer bo‘lagining sotilishi haqida gap borgan. Matnda u sug‘dcha aksok deb atalgan [2; 125-b.]. Hujjatda savdo muomalasiga qo‘yilgan yerning nomi atalgach, u ilk o‘rta asrlardagi Sug‘d hujjatchiligiga xos tarzda rasmiylashtirilgan. Savdoga kirishuvchi tomonlarning vakillari nomma-nom atalgan: xaridorlar Maxch va Xshumvand, sotuvchilar Shirvagch va Satafsarak.

Mug‘ tog‘i arxiv hujjatlarida Xamir (yoki Amir) ismli shaxsdan framandarga yuborilgan hujjat mavjud. Hujjat A-6 raqami bilan qayd qilingan maktub hisoblanadi. Maktub mazmuniga ko‘ra, uning muallifi Xamir framandar Avat tomonidan hasharga jalb qilingan odamlar ustidan nazoratchi sifatida tayinlangan shaxs hisoblanadi. Maktubda Xamirning odamlar unga bo‘ysunmayotgani to‘g‘risidagi shikoyati va uning vakolatini tasdiqlashni so‘rab yozgan murojaati aks etgan. Maktubning ijtimoiy ahamiyati aholi qatlamlari o‘rtasida majburiy mehnat shakllari mavjud bo‘lganligi va ular zodagonlar manfaatiga asoslanganligini ko‘rsatadi.

Ilk o‘rta asrlarda Sug‘d jamiyatida aholini ta’minlash maqsadida shakllangan o‘ziga xos ta’minot tizimi mavjud bo‘lgan. Mug‘ tog‘i arxiv hujjatlarida buni ifodalovchi hujjat va maktublar mavjud. Ana shunday maktublardan biri B-13 raqamli hujjat bo‘lib, framandar mansabini egallab turgan shaxsga Spadak ismli shaxs nomidan yuborilgan [17; 89-b.]. Bu holat maktubda «buyuk tayanchimizga» so‘z birikmasi orqali ifodalangan. Maktubda framandardan olingan kiyim-kechak, Devashtich tomonidan ajratilgan oziq-ovqat, meva, Litpir ismli shaxsga 200 kafch don va Spadak ixtiyorida turgan 50 bosh qo‘yni berish to‘g‘risida Devashtich buyruq bergani haqida aytilgan. Ko‘rinib turibdiki, hujjat framandarning vakili Spadak tomonidan xo‘jalik sarf-xarajatlari haqida yuborilgan hisobot ma’lumoti sifatida qaraladi. Spadak tomonidan framandarga yozilgan maktublarda ham xazinaga kelib tushgan oziq-ovqat va ularning taqsimoti bilan bog‘liq iqtisodiy vaziyat haqida axborot berilgan. Keltirilgan ma’lumotlar Sug‘d jamiyatida aholining ijtimoiy ta’minoti bilan birgalikda ayrim shaxslarga yo‘naltirilgan ta’minot tizimi ham mavjudligini ifodalaydi. Bu esa Sug‘dda shaxslarga hukmdor oldidagi xizmatlari evaziga nafaqa tayinlangan bo‘lishi ehtimoldan xoli emasligini ko‘rsatadi.

Sug‘ddagi ijtimoiy va iqtisodiy masalalarni yoritishda Mug‘ tog‘i arxiv hujjatlarining A-5 raqamli qaydnomasi muhim ahamiyatga ega. Qaydnomada saroy xizmatchilariga berilgan maosh, in’om va turli mahsulotlar uchun amalga oshirilgan to‘lovlar qayd qilingan [4; 161-b.]. Jumladan, poda boquvchiga (6 dirham), hujjatlar tuzuvchiga (8 dirham), qassobga (5 dirham), bosh kohinga (50 dirham), bog‘ boshlig‘iga (10 dirham), bosh sharobchiga (10 dirham), gupatga (50 dirham) va bosh tabibga (15 dirham) miqdorida maosh va pul to‘lovi amalga oshirilganligi qayd qilingan. Shuningdek, qaydnomada 2 dirhamga etik, 12 dirhamga himoya ko‘ylaklari, 8 dirhamga qog‘oz va ipak, 15 dirhamga ko‘ylak, 11 dirhamga sigir sotib olinganligi, tom yopish uchun 100 dirham berilganligi keltirilgan [10; 216-b.]. Hujjat matnida Vasr, Artik, Karjmank, Maxr, Veshian, Darkanak, Futchak, Gonu, Vorkutak, Jeguvak, Xomdat, Framashtak, Avdmaxch, Makdash va Ravuch kabi shaxs va joy nomlari keltirilgan. Qaydnomani tahlil qilish asosida sug‘diylar jamiyati qanday ijtimoiy-iqtisodiy hayot kechirganligining guvohi bo‘lamiz. Bu ijtimoiy hayotda maosh oluvchilarning o‘rni va ahamiyatini ko‘rsatishga xizmat qiladi. Qiyoslash uchun gupatning maoshi 50 dirhamni, sigirning narxi esa 11 dirhamni tashkil etgan. U o‘zining oylik maoshiga 4–5 ta sigir olishi mumkin bo‘lgan. Hujjatda keltirilgan boshqa lavozim egalarining maoshi ham 10 dirhamdan ziyod yoki shu atrofida bo‘lganligidan kelib chiqib, saroyda xizmat qilish aholi qatlamlarining ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan to‘qligini ta’minlagan. Mug‘ tog‘i arxivi hujjatlariga kiruvchi B-18 raqamli hujjatda Izrovadk qishlog‘ining arspan lavozimida turgan Xufarn ismli kishi framandarga hunarmandchilik mahsulotlarini topshirish evaziga don va ot sovuti kabi mahsulotlar olinishi zarurligini qayd qilgan.

Ilk o‘rta asrlarda Sug‘ddagi qishloqlardan soliq va o‘lponlar natura (mahsulot) ko‘rinishida olingan. Xo‘jalik hujjatlari orasida bug‘doy, o‘rik, may va boshqa mahsulotlarga oid daromad va kirim-chiqim bo‘yicha rasmiy yozishmalar saqlangan. Shuningdek, qo‘ylarni, terini, unni va mayni yetkazib berishga oid hujjatlar ham uchraydi. A-16, A-18, B-13, B-15 kabi qator hujjatlarda Panjikent hokimining Kushtut, Falgar, Madm, Martushkat singari Yuqori Zarafshondagi qishloqlarga oziq-ovqat tarqatilishiga doir masalalar aks etgan [14; 83-b.].

Mug‘ tog‘i arxivida yuqorida nomi zikr etilgan don bilan bog‘liq hujjatlar bo‘lib, ularda Xufarn va Xutachanlarga yoki bo‘lmasa Zrunb qishlog‘i aholisiga 200 kafchdan don berish haqida gap boradi. Bu hujjatlardagi don miqdori qariyb 2–3 tonnaga yaqin. Omborlardan bu donning nima asosda iste’molga tarqatilishi haqida biror narsa deyish qiyin. Har holda, ushbu jarayonda oldi-sotdi munosabatlari aks etmagan. Don evaziga biror narsa undirilishi ham hujjatlarda qayd etilmagan. M. Ishoqovning ta’kidlashicha, don tarqatilishi an’anaviy qishloq jamoatchiligi darajasidagi ijtimoiy munosabatlarning bir ko‘rinishi deb qaralishi mumkin [8; 12-b.]. Ya’ni, ma’lum davrlarda davlat (bosqinchilik, ocharchilik, qurg‘oqchilik sharoitida) o‘z xalqini kerakli mahsulotlar bilan ta’minlagan. Mug‘ tog‘i arxivi hujjatlarining B-12 raqamli hujjatida Madm qishlog‘i to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Yuqori Zarafshon vohasi qishloqlaridan biri

ISSN 3060-5059 (Online)

bo‘lgan Madmda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar sug‘diylarning ijtimoiy hayoti va qishloq xo‘jaligiga bog‘liqligi haqida qimmatli ma’lumotlar beradi. Yu. Yakubovning so‘zlariga ko‘ra, Madm qishlog‘ida 22 ta uy aholi punkti sifatida qazilgan. Aholi punktida taxminan 30–35 ta oila yashagan. Keltirilgan ma’lumot ilk o‘rta asrlarda qishloq joylarida aholi sonini aniqlashda qimmatli ahamiyatga ega.

Umuman olganda, Yuqori Zarafshon vohasida 50 ga yaqin qishloq makonlari ochib o‘rganilgan bo‘lib, ularda taxminan 8000–10000 nafargacha aholi yashagan bo‘lishi mumkin (yirik shaharlarni hisobga olmagan holda). Shu bois qishloq aholisini tadqiq qilish ham ilk o‘rta asrlarda Sug‘ddagi ijtimoiy jarayonlarni ochib berishga xizmat qiladi.

XULOSA

Mug‘ tog‘i arxivi nikoh munosabatlari, mulk muomalasi, mehnat majburiyatlari va saroy xo‘jaligiga oid bevosita ma’lumotlarni saqlab qolgan. Hujjatlardagi huquqiy shartlar ijtimoiy amaliyotning barcha qatlamlarda bir xil kechganini isbotlamaydi; ularni muayyan vaziyat va hujjat turi doirasida baholash zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1 Marinova M. Status of Women in Ancient Sogdian Society. – P. 7. – URL: https://www.researchgate.net (дата обращения: 03.02.2026).

2. Non-Han. Literature Along the Silk Road. – Singapore, 2020. – P. 125.

3. Shenkar M. The Origin of the Sogdian Civic Communities (nāf). – P. 360.

4. Sims-Williams N. Sogdian Epigraphy of Central Asia and Semirech’e. – P. 161.

5. Yakubovich I. S. Marriage Sogdian Style // Iranistik in Europa – Gestern, Heute, Morgen / Ed. by B. Fragner et al. – Vienna: Österreichische Akademie der Wissenschaften, 2006. – P. 312.

6. Аванесова Е. Г. Взаимодействие религии и политики как философская проблема. – Томск, 2010. – С. 48.

7. Бартольд В. В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия // Сочинения. – М.: Издательство восточной литературы, 1963. – Т. I. – С. 454.

8. Ishoqov M. Sug‘diycha bitiglarga yangicha qarash // Mangu bitiglar. – Toshkent: TDSHI, 2009. – B. 12.

9. Ishoqov M. Unitilgan podsholikdan xatlar. – B. 38.

10. Лившиц В. А. Согдийская эпиграфика Средней Азии и Семиречья. – С. 216.

11. Лившиц В. А. Согдийская эпиграфика Средней Азии и Семиречья. – С. 101.

12. Лившиц В. А. Согдийская эпиграфика Средней Азии и Семиречья. – С. 25.

13. Лившиц В. А. Согдийский брачный контракт начала VIII века н. э. (документы Nov. 3 и Nov. 4 с горы Муг) // Этнографическое обозрение. – 1960. – № 5. – С. 49.

14. СДГМ II. – С. 83.

15. O‘zbekiston tarixi: xrestomatiya. – 1-jild, birinchi kitob, ikkinchi qism. – Toshkent: Fan, 2014. – B. 53–100.

16. O‘zbekiston tarixi: xrestomatiya. – 1-jild, birinchi kitob, ikkinchi qism. – Toshkent: Fan, 2014. – B. 73.

17. O‘zbekiston tarixi: xrestomatiya. – 1-jild, birinchi kitob, ikkinchi qism. – Toshkent: Fan, 2014. – B. 89–90.

18. G‘oyibov B. Sug‘d konfederatsiyasida Panchning o‘rni (ilk o‘rta asrlar). – Toshkent: Navro‘z, 2012. – B. 34–35; Muqimov Z. O‘zbekiston huquqining asosiy tarixiy manbalari. – Samarqand, 2008. – B. 27.